

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 91 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELTIRIB CHIQARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODEL I	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEXANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	



O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEXANIZMI

Sattorov Orifjon Boymurodovich

PhD, dotsent

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” MTU

email: orifjonsattorov34@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda va hududlardagi bog'dorchilik tarmog'ni rivojlanishi va o'zgarishi ko'rib chiqilgan. Respublikadagi bog'dorchilik maydonlari, hosilga kirgan bog'larning hozirgi holati va o'zgarishlari. Respublikamiz va xususan Qashqadaryo viloyati misollarida bog'dorchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha taklif va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bog'dorchilik, tarmog'i, samaradorlik, hosildorlik, ixtisoslashgan, rentabellik.

Abstract. This article examines the development and changes in the horticultural sector in our country and regions. The current state and changes in horticultural areas in the republic, the number of gardens that have entered the harvest. Proposals and conclusions are presented on the development of the horticultural sector using the examples of our republic and the Kashkadarya region in particular.

Keywords: horticulture, industry, efficiency, productivity, specialization, profitability.

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие и изменения в секторе садоводства в нашей стране и регионах. Анализируется текущее состояние и изменения в садоводческих районах республики, количество садов, вступивших в сезон сбора урожая. Представлены предложения и выводы по развитию сектора садоводства на примерах нашей республики и, в частности, Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: садоводство, промышленность, эффективность, производительность, специализация, рентабельность.

KIRISH

Dunyoda aholi sonining ortib borishi, noqulay demografik holatlar, siyosiy nobarqarorlik qishloq xo'jaligi uchun nobarqaror tabiiy-ijtimoiy muhitni yuzaga keltirmoqda. Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO) ekspertlarining fikricha, hozirda jahon hamjamiyati insoniyatni oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash imkoniyatiga ega emas. Yer sharining har bir aholisi ham fiziologik me'yorlar darajasida oziq-ovqat bilan ta'minlangan. O'zbekiston Respublikasida Suv resurslaridan oqilona foydalangan holda qo'shimcha 300 ming gektar yer maydonini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni qo'llash orqali o'zlashtirish va mazkur yerlarda ozuqabop, dorivor, moyli, dukkakli, sholi, g'alla, sabzavot, poliz ekinlari ekish, intensiv bog' va uzumzorlar tashkil etish. Buning asosiy sabablari sifatida aholi soni o'sishi, siyosiy vaziyat nobarqarorligi, keng miqyosdagi urbanizatsiya, industrilashtirish foydasiga samarali qishloq xo'jaligidan voz kechish, rivojlanayotgan davlatlar xususiyatlari kabi holatlar keltiriladi. [1].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda bog'dorchilik tarmog'i tushunchasini keng tarqalgan, bog'dorchilikni rivojlantirish uchun shuni alohida takitlash joizki, xorijiy hamda respublikamizdagi ko'plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan mazkur tushunchaga ta'riflar berilgan. masalalari T.Farmonov, N.Xushmatov, O.Jumaev, Sh.Murodov kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan [2-5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida qiyosiy tahlil, abstrakt fikrlash, iqtisodiy hisob-kitob, ekspert baholash va monografik kuzatish usullaridan foydalanilgan.

Bugungi kunda bog'dorchilik tarmog'ini rivojlantirish respublikada mamlakat aholisining sifatli va havfsiz oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ayni paytda bog'dorchilik tarmog'ini an'anaviy bog'dorchilikka nisbatan tadbirkorlik subyektlaridan ko'p miqdordagi dastlabki investitsiyalarni talab qilsada, uzoq muddatli bog'dorchilik tarmog'ini talab qilmasligi sababli respublikamiz hududlarida keng miqyosda rivojlanmoqda. Shu bilan birgalikda bog'dorchilik tarmog'ini rivojlantirish nafaqat tijorat kapitalining, balki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlariga javob beruvchi:

bir gektar maydon hisobiga to'g'ri keladigan dastlabki investitsiyalarning miqdori yuqoriligi hamda murakkab texnik uskunalar va texnologiyalar talab etilishi boisdan davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash zarurati mavjudligi;

bog'dorchilik tarmog'ini rivojlantirish mamlakat agrar iqtisodiyoti tarmoqlariga, zamonaviy texnologiyalar kirib kelishi, qishloq xo'jaligida mehnatning zamonaviy texnik uskunalar va texnologiyalar bilan qurollanish darajasi ortishi;

qishloq xo'jaligi yer maydoni birligi hisobiga miqdori nisbatan ko'proq va sifati jihatidan bozorgir qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilishi natijasida mavjud agrar resurslardan foydalanish samaradorligi bir necha marta ortishi;

odatdagi holatda kam daromad keltiradigan lalmi dehqonchilik, tog'li va tog' oldi hududlaridan foydalanish iqtisodiy samaradorligi ortishi natijasida qishloq oilalari daromadi ko'tarilishi;

qishloq joylarida yangi ish o'rinlari paydo bo'lishi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar soni ortishi kabi imkoniyatlar yuzaga kelishi bog'dorchilik tarmog'ini rivojlantirishni davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish taqozo etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

- bozorga taklif qilishdan avval tashqi ko'rinishi, o'lchamlari, sifati bo'yicha navlarga ajratish, o'rash, qadoqlash va iste'molchilarga yetkazib berish tizimida mahsulotlar sifati buzilishi hamda mexanik ta'sirlar natijasida yuz beruvchi nobudgarchiliklarni bartaraf qiluvchi logistik tizimini shakllantirish;

- respublikada yetishtirilayotgan mevalarning ichki bozor talabidan ortiqchaligi boisdan bugungi mahsulot eksporti tizimini rivojlantirish zarurati, tez o'zgarib boruvchi tashqi bozor kon'yunkturasini muntazam o'rganuvchi hamda ichki bozorda mevalar bilan savdo qilish tizimini diversifikatsiyalash masalalarni hal etish;


- intensiv bog'dorchilik rivojlanishi ko'p miqdordagi mevalarning bir vaqtning o'zida pishib yetilishiga olib keladi. Bunday sharoitda taklif miqdorining ortib ketishi tayyorlash va saqlash hamda transport logistik bo'g'inlarining rivojlanishini ta'minlash;

- mevalarning bir vaqtda pishib yetilishi, yetishtirilgan mevalarning ma'lum qismi qisqa va uzoq muddatli saqlashga va shuningdek bozorga to'g'ridan-to'g'ri chiqarish uchun yaroqsiz ekanligi (pishib yetilishi darajasi turlichaligi, tashqi ko'rinishi, o'lchamlari va mexanik shikastlanganligi tufayli) boisdan turli mulkchilik asosidagi qayta ishlash subyektlarini rivojlantirish taqozo qilinadi.

Bog'dorchilik sohasining qishloq xo'jaligining boshqa sohalaridan farq qiluvchi xususiyati shundaki, erta bahorda daraxtlar gullagan paytda sovuq urishi tufayli yo'qotilgan hosil o'rnini qayta tiklab bo'lmaydi. Bog'lar maydoni bir yil davomida hech qanday iqtisodiy natija bermaydigan va shu bilan birgalikda uni (bog'larni) saqlab turish uchun sarf-xarajatlar talab qilinadigan qimmatbaho ob'ektga aylanadi.

Boshqa ekin turlarida tabiiy ofatlar tufayli erta bahorda keltirilgan zarar tufayli ekin maydonini buzib ekinni qayta ekish mumkin, yoki zararlangan maydonlarda qo'shimcha ekish mumkin. Mevali bog'larni esa buzib bo'lmaydi va keyingi yilni kutish kerak bo'ladi. [6].

Shuning uchun ham bog'dorchilik tarmog'iga tabiiy ofatlar orqali keltiriladigan iqtisodiy zararlar tufayli hosil yo'qotilishini "talofatlarni kompensatsiya qilish" amaliyotini joriy qilish orqali qoplanishi tavsiya etiladi. Mazkur tizimning zarurati agrosug'urta tizimining qishloq xo'jaligida tabiiy ofatlarni sug'urtalash faoliyati samarasiz ekanligi bilan bog'liq (1-rasm).



1-rasm. Bog'dorchilik tarmog'i tabiiy ofatlar tufayli kelib chiqadigan talofatlarni kompensatsiya qilish tizimi zarurati

- birinchidan, bugungi kunda Agrosug'urta davlat aksiyadorlik kompaniyasi asosiy faoliyati tijoratga asoslanganligi boisdan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy ofatlar natijasida ko'radigan zararlarni sug'urtalashdan manfaatdorligi keskin kamaygan;

- ikkinchidan, sug'urta tizimi tabiiy ofatlar tufayli qishloq xo'jaligi tadbirkorlik subyektlari ko'rgan zararlarni to'liq qoplab bermaydi (sug'urta qoplamasi sug'urta mukofoti miqdorining 35 foizidan, davlat buyurtmasi mavjud bo'lgan paxtachilik va g'allachilik sohalarida 80 foizigacha bo'lgan miqdorni tashkil qiladi);

- uchinchidan, kuchli tabiiy ofatlar doimiy emasligi va ularni prognoz qilish qiyinligi boisdan qishloq xo'jaligi korxonalari har yili o'zlarini tabiiy ofatlardan sug'urta qilish uchun mablag'lar (yoki yil boshida yetarli miqdordagi mablag'lar mavjud emasligi) ajratishni ma'qul ko'rishmaydi;

- to'rtinchidan, bog'dorchilik tarmog'idagi talofatlarni kompensatsiya qilish amaliyoti nafaqat zararlarni qoplash balki, jamiyat manfaatlarini doirasida bog'dorchilik tarmog'i sohasida texnologiyalarni joriy qilishni rag'batlantiruvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Bu borada meva yetishtiruvchi subyektlar tomonidan tabiiy ofatlar tufayli ko'riladigan iqtisodiy zararlarni kompensatsiya qilish amaliyotini joriy qilish bog'dorchilik tarmog'ini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, sug'urta tizimi orqali qoplanmagan zararlar yoki boy berilgan o'rtacha foyda miqdorini qoplash amaliyoti sifatida qabul qilinishi lozim.


Ammo, mazkur qo'llab-quvvatlash tizimi barcha bog'dorchilik tarmog'i subyektlari uchun tegishli bo'lmasdan balki, jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda, meva yetishtiruvchi subyektlarni rag'batlantiruvchi asosga ega bo'lgan holda tegishli ko'rsatkichlarga ega bo'lgan bog'dorchilik tarmog'i bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun tegishli bo'ladi. Ushbu tizim hududiy tamoyil asosida joriy qilindi (2-rasm).

Demak, bog'dorchilik tarmog'i bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimi jamiyat manfaatlarini doirasidagi manfaatlarini hisobga olgan holda, quyidagi yo'nalishlarda va mexanizmida amalga oshirilishi tavsiya qilinmoqda:

Birinchi yo'nalish – bog'dorchilik tipdagi bog'larda sifatli va bozorgir mahsulot yetishtirishni rag'batlantirishni e'tiborga olgan holda bog'dorchilik subyektlarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash.

Bunda, kompensatsiya to'lashda o'tgan yildagi tuman bo'yicha bog'dorchilik tipdagi bog'larga ega bo'lgan xo'jalik yurtuvchi subyektlar tomonidan o'rtacha bir gektar hosilga kirgan bog'lar maydoni hisobiga meva eksport qilish hajmi hisobga olinadi (ga/tonna). Agarda kompensatsiyaga talabgor bo'lgan bog'dorchilik tarmog'i bilan shug'ullanuvchi xo'jalikning ko'rsatkichi:

- tumanning o'rtacha eksport ko'rsatkichidan kamida 20 foizga ortiq bo'lganda, xo'jaliklar uchun ko'rilgan talofatlarning 60 foizi miqdoridagi qismini qoplab berish (2-rasm);



2-rasm. Bog'dorchilik tarmog'ida tabiiy ofatlar tufayli kelib chiqadigan talofatlarni kompensatsiya qilish mexanizmi

- tumanning o'rtacha eksport ko'rsatkichidan 50 foizdan ortiq bo'lganda, xo'jaliklar uchun ko'rilgan talofatlarni to'liq (100 foiz) qoplab berish taklif qilinmoqda.

Ikkinchi yo'nalish – bog'dorchilik tipdagi bog'larda resurstejamkor texnologiyalar (asosan suv va energiya tejamkor) joriy qilishni rag'batlantirishni e'tiborga olgan holda bog'dorchilik subyektlarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash.

Bunda, talofatlar uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarga kompensatsiya to'lashda bog'larda raqamli texnologiyalarga asoslanuvchi suv va energiya tejovchi uskunalar (elektr energiyasi) hamda agrotexnik usullar joriy qilinganligi e'tiborga olinadi. Agarda kompensatsiyaga talabgor bo'lgan bog'dorchilik tarmog'i bilan shug'ullanuvchi xo'jalikning ko'rsatkichi:



- bog' maydonlarining kamida 60 foiziga joriy qilinganda xo'jaliklar uchun ko'rilgan talofatlarning - 60 foizini qoplab berish;

- 80 foizdan ortiq maydonda joriy qilinganda xo'jaliklar uchun ko'rilgan talofatlarni to'liq (100 foiz) qoplash taklif qilinadi.

Uchinchi yo'nalish – bog'dorchilik tipdagi bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklarda qo'shilgan qiymat yaratilganligi ko'lamini e'tiborga olib rag'batlantirish mexanizmi joriy qilinadi.

Bunda, bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektining o'tgan yilda yetishtirilgan hosili hisobidan, o'z hududida yoki o'zining ishtirokida tashkil qilingan noqishloq xo'jaligi subyektlari (mevalarni qisqa va uzoq muddatga saqlash omborxoanlari, qadoqlash tizimi, mevalarni turli darajada qayta ishlash, o'z savdo tizimi orqali sotish kabilar) orqali yaratilgan qo'shilgan qiymat miqdori hisobga olinadi. Bog'dorchilik xo'jaligida agarda:

- xo'jalikda yetishtirilgan mevalar qiymatining 20 foizidan kam bo'lmagan miqdorda qo'shilgan qiymat yaratilgan bo'lsa, tabiiy ofatlar tufayli ko'rilgan talofatning 60 foizini qoplab berish;

- xo'jalikda yetishtirilgan mevalar qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lgan miqdordagi qo'shilgan qiymat yaratilganda - tabiiy ofatlar tufayli ko'rilgan talofatni to'liq (100 foiz) qoplab berish tartibi joriy qilinishi taklif etiladi.

Bog'dorchilik tarmog'i bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarida tabiiy ofatlar tufayli ko'rilgan talofatni qoplab berish tizimining moliyalashtirish manbasi sifatida:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Tadbirkorlik faoliyati rivojlanishini qo'llab-quvvatlash Davlat jamg'armasi" mablag'lari;

- Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaliklarini rivojlantirish agentligi qoshidagi "Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaliklarini rivojlantirish jamg'armasi" mablag'lari taklif qilinmoqda.

Yuqorida taklif qilinayotgan tadbirlar tadbirkorlik subyektlarini agro sug'urta tizimi tomonidan qoplanmaydigan zararlari hamda sug'urta amaliyotidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan subyektlar uchun muhim ahamiyat kasb qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bog'dorchilik sohasi bugungi kunda to'liq erkin bozor tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan bo'lib, soha rivojiga ma'muriy buyruqbozlik tizimi qoldiqlari emas, ko'proq xizmat ko'rsatish tizimlarining, mineral o'g'itlar, intensiv bog'lar kasalligi va turli hasharotlariga qarshi kurash vositalari yetkazib berish, intensiv bog'dorchilik texnikalari va uskunalari ishlab chiqarish va fermer xo'jaliklariga sotish sohasida tadbirkorlik subyektlari yetarli darajada rivojlanmaganligi to'siq bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
2. Xushmatov N. Meva-sabzavot mahsulotlari savdosida kooperatsiyani rivojlantirishning huquqiy asoslari// Agrar iqtisodiyot. Ilmiy-amaliy muammolar byulleteni. / O'z BIITI. – 2008. № 3-4.
3. Farmonov T.X. O'zbekiston Respublikasi fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. i.f.d. . diss. avt. – T.: 2006. – 46 b.;
4. Jumaev O. Ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida meva-sabzavotchilik majmuida kooperatsiyani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari. i.f.n. ... diss.avt. – T.: O'zBIITI, 2004. – 24
5. Murodov Sh. "Meva-sabzavotchilik agrosanoat firmalari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy jihatlari" "Yosh olimlar – qishloq xo'jaligi fani va amaliyotini yuksaltirishda yetakchi kuch"//Agro ilm,
6. Sattorov O., Zakirov G., Tulaboev.A.Trends of the development of private farms in intensive gardening. / Sustainable Agriculture № 2 (3). 2019/. – B 7-10.
7. Sattorov O. Intensiv bog'dorchilikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari / J. Agro iqtisodiyot. -№4. -2019.- B. 108-109.
8. Sultonov B., Axmedov A. Qishloq xo'jaligidayerlarning meliorativ holatini baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. J.: Science and education in agriculture. 12-son, 2024. – 21-33 betlar.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100